

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Толипов Файзулла Саидович
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Гонашвили А.С. К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ЕВРАЗИЙСКОГО НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА: ОПЫТ УНИВЕРСИТЕТА ПРИ МПА ЕврАзЭС.....	5
2. Sodiqova Shohida Marxaboevna ZAMONAVIY IJTIMOIY HIMOYA TIZIMINING UMUMBASHARIY TAMOYILLARI, SHAKLLARI VA SUBYEKTLARI.....	15
3. Farfiyev Baxramdjan Atxamdjanovich DIN SOTSILOGIYASI FANINING METODOLOGIK MASALALARI XUSUSIDAGI AYRIM MULOHAZALAR.....	25
4. Abduraxmonova Manzura MAKTABLARDA IJTIMOIY ISH FAOLIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	34
5. Sodiqova Shohida Marxaboevna, Tagieva Gulsum Gafurovna “IJTIMOIY TA’MINOT” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI.....	40
6. Kayumov Kaxramon O‘Z KASBIGA SADOQAT SOTSIAL FENOMEN SIFATIDA.....	46
7. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINING EVOLYUSION TENDENSIYALARI.....	52
8. Ахмедова Раъно ИНТЕРНЕТ КАК ПРОСТРАНСТВО МАССОВОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	59
9. Masharipov Baxtiyar SIFATIY SOTSILOGIK TADQIQOTLARDA “SHAHAR” IJTIMOIY INFRATUZILMA MAKONINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI TADQIQI.....	68
10. Рашидова Шахноза МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ.....	77
11. То‘рахо‘jaeva Ra’no DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING SOTSILOGIK TAHLILI.....	84
12. Zaretdinova Nesibeli QORAQALPOG’ISTONDAGI IJTIMOIY-DEMOGRAFIK HOLATNI O‘RGANISH DOLZARBLIGI.....	91


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Каюмов Кахрамон

О‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar
Universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri,
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: nqayumov@inbox.ru

О‘З КАСБИГА САДОҚАТ СОТСИАЛ ФЕНОМЕН СИФАТИДА

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15868291>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘z kasbini qadrlash va unga sadoqat bilan yondashish masalasiga e‘tibor qaratilgan. Bugungi kundagi taraqqiyotda kasb egalari o‘z kasblariga munosabati muhim ahamiyatga ega. Har bir shaxsning hayotida uning mutaxassisligi va faoliyatining o‘rni va roli beqiyos. Bunda shaxsning o‘zi qiziqqan mashg‘ulot bilan shug‘ullanishi samarali natijaga erishishida muhim fenomen ekanligini yoritishga harakat qilingan. Jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashda sotsial muammolarni ilmiy o‘rganish zarur. Turli sohalarning rivojida kasb egalari xatti-harakati va uni rivojlantirishga bo‘lgan munosabati dolzarblik kasb etadi. Bu o‘z navbatida kasbning jamiyatdagi sotsial maqomini ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Jamiyat taraqqiy etib borar ekan, yangi turdagi kasblarning vujudga kelishi yoki qaysidir sohaning o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Muallif maqolada ushbu muammoni sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilgan.

Kalit so‘zlar: kasb, status, rol, o‘qituvchi, fenomen, soha, kasbiy faoliyat, faoliyatga yondashuv, kasbiy faoliyatning tuzilishi, kasbiy faoliyat omillari.

Каюмов Кахрамон

Университет журналистики и массовых
коммуникации Узбекистана заведующий
кафедрой социально-гуманитарных наук,
доктор философии (PhD) по социологии
e-mail: nqayumov@inbox.ru

ПРЕДАННОСТЬ СВОЕЙ ПРОФЕССИИ КАК СОЦИАЛЬНЫЙ ФЕНОМЕН

АННОТАЦИЯ

В этой статье основное внимание уделяется вопросу признательности и преданности своей профессии. В современном развитии важное значение имеет отношение профессионалов к своей профессии. В жизни каждого человека его профессия и роль несравнимы. Было показано, что занятие интересными занятиями является важным фактором для достижения результата. Необходимо научное изучение социальных проблем в обеспечении развития общества. В развитии различных сфер актуальны поведение и отношение к развитию профессий. Это, в свою очередь, способствует повышению

социального статуса профессии. По мере развития общества могут возникнуть новые профессии или же они могут потерять свое значение. В статье автор проанализировал эту проблему с социологической точки зрения.

Ключевые слова: профессия, статус, роль, учитель, феномен, сфера, профессиональная деятельность, деятельностный подход, структура профессиональной деятельности, факторы профессиональной деятельности.

Kayumov Kahramon,
Uzbekistan journalism and Mass Communications
head of the Department of social and humanitarian Sciences of the, University
Doctor of philosophy in sociology (PhD)
e-mail: nqayumov@inbox.ru

DEDICATION TO ONE'S PROFESSION AS A SOCIAL PHENOMENON

ABSTRACT

This article is about appreciating your profession and treating it loyally. In modern development, the attitude of professionals to their profession is important. In the life of every person, his profession and role are incomparable. It has been shown that engaging in interesting activities is an important factor in achieving results. Scientific study of social problems in ensuring the development of society is necessary. In the development of various spheres, the behavior and attitude to the development of professions are relevant. This, in turn, contributes to the improvement of the social status of the profession. As society develops, new professions may arise or they may lose their importance. In the article, the author analyzed this problem from a sociological point of view.

Keywords: profession, status, role, teacher, phenomenon, sphere, professional activity, activity approach, structure of professional activity, factors of professional activity.

KIRISH

XXI asr yer yuzida keskin o'zgarishlar va globallashuv asri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunda hayot suratlarini shiddat bilan tezlashuvi va rivojlanishning ijobiy jihatlari bilan birga, salibiy oqibatlarini ham namoyon bo'lmoqda. Shunday kasb egalari borki, ular shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida muhim rol o'ynaydilar. Shuningdek, shaxsni kelgusi hayoti, kasb tanlashida ham o'z hissalarini qo'shadilar. Ushbu kasb egalari turli tillarda turlicha atalsalarda, faoliyatlari bir, ta'lim va tarbiya berishdir. Shu o'rinda bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" [1, – B.96], degan so'zlarini keltirish o'rinlidir.

O'qituvchilar nafaqat ta'lim, balki, tarbiya bobida ham muallimlardir. Oilada tarbiya beriladi, ammo, ta'limda ham ta'lim bilan birga tarbiya ham beriladi. Shu o'rinda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning so'zlarini keltirish o'rinlidir. "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi, bu sharqona qarash, sharqona hayot falasafasi" [2, – B.176], degan fikrlari qimmatlidir.

Bizningcha, tadqiqot obyekti sifatida kasbiy faoliyatga murojaat qilish, birinchi navbatda, ushbu hodisaning mohiyatini aniqlashni talab qiladi. Shuning uchun, birinchi navbatda, kasbiy faoliyat tushunchasini ko'rib chiqish dolzarblik kasb etadi. Bugungi kun o'qituvchisi va o'quvchisidan ham ko'plab bilim talab etiladi. Bu o'z navbatida ushbu shaxslarning faoliyatiga bog'liq. Ayniqsa, o'qituvchilik kasbi va ma'suliyatini his qilish dolzarb masaladir. Ko'pgina hollarda o'qituvchining ham o'z ustida ishlamasligi, jamiyat va millat uchun ayanchli holdir. Faoliyatdan chalg'ituvchi omillarning kundan-kunga ommalishib borishi ham yoshlarda ma'suliyat hissini yo'qotmoqda. Sotsiologiyada vaqt masalasi inson hayotidagi muhim masala. Chunki, vaqt qilich kabidir, sen uni kesmasang, u seni kesib tashlaydi degan hadis sharif mavjud. Bugungi kun o'qituvchisi bilan birga o'quvchining vaqti ham ta'limga doir masalalar bilan shug'ullanishdan ko'ra ijtimoiy tarmoqlarda ko'proq o'tmoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, ushbu mavzuni tatqiq

qilish maqsadga muvofiq. Bunda o'qituvchining o'z ustida ishlashi uchun imkoniyatlar kengligi keng qamrolidir.

METODOLOGIYA

Har bir kasb mutaxassisi o'z kasbini sevishi va unga sodiq, fidoiy bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoga doir ko'plab sharq mutafakkirlarining qarashlari, sotsiologik fikrlari qimmatlidir. Jumladan, Abu Nasr Forobiy "Har bir kishi kasb-korni mukammal bilmog'i, yaxshi tarbiya olmog'i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak. Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi" [3, – B.320], – deb ta'kidlaydilar. Darhaqiqat mutafakkirning fikrlari asoslidir.

Demak, ushbu fikrdan shuni anglash mumkinki, albatta har bir kasb egasi o'z kasbini mukammal bilishi, shu bilan birga yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo'lishi, o'z ustida uzluksiz ishlashi lozim. Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida ham aynan mana shunday ezgu maqsadlar yotadi. Ammo, ta'lim sohasida muammolar mavjud va ularni bartaraf qilishda samarali va ilmiy asosga ega usullardan foydalanish bugungi kunning zaruriyati. Jumladan, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, o'qituvchining kasbiga munosabati, ota-onalarni farzandlari ta'limi hamda o'qituvchisiga munosabatiga ma'lum bir tanqidiy nuqtai nazardan yondashish mumkin.

Bizning nazarimizda ushbu munosabatlarni o'rganish va sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilish dolzarblik kasb etadi. Chunki, maktab davri shaxsning ijtimoiylashuvi va o'zi uchun zarur ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishi hamda singdirishida muhim davr hisoblanadi. Bunda ta'lim beruvchilarni o'z kasbini nechog'li yaxshi ko'rishi va unga sadoqat bilan yondoshishi ahamiyatlidir.

ASOSIY QISM

Zamonaviy taraqqiyot sharoitida kasbga bo'lgan munosabatlarni o'rganish va tahlil qilib borish, jamiyat uchun zaruriyat hisoblanadi. Turli soha vakillari o'z sohalarini rivojlantirish uchun harakat qiladilar. Bunda fanlar ma'lum bir ma'noda o'z taqdirini o'zi belgilashi, bugungi va kelajakdagi amalga oshirishi zarur bo'lgan masalalarni belgilashi lozim. Kasbning tarixiyligi va zamonaviyligi, uning sub'ektivligi va obyektivligi, kasblarning xilma-xilligi va ularning maqsadga muvofiqligi bularning barchasi birlashadi. Bir kasb o'z o'zidan rivojlanmaydi. Jamiyatda mavjud muammolarni ilmiy o'rganish va unga yechim topish maqsadida fan rivojlanadi va ahamiyatini oshirib boradi. Sotsiologiya XIX asrning ikkinch yarmida vujudga keldi, ammo tez suratlarda rivojlandi. Sababi, bu muammolarni o'rganish va tahlil qilishda ushbu sohaning mumtoz olimlari muhim rol o'ynadi.

Jumladan, Ogyust Kont [4, – B.296] o'zining sotsiologiyaga sotsial statika va sotsial dinamika tushunchalarni kiritdi. Bunda jamiyatni dinamik holati rivojlanishni ifodalasa, albatta bu rivojlanishda kasb egalarining mehnati yotadi. Yani kadrlarni tayyorlash va ularni jamiyat uchun xizmat ko'rsatishini aytishimiz mumkin.

Mumtoz olimlarning hizmatlari shundaki, ular fanni rivojlantirishda fidoiylik ko'rsatdilar. Ular erkin fikrlovchi, haqiqatga tik qarashlari bilan fanni rivojiga to'siq bo'ladigan unsurlar bilan kurashdilar.

O.Kont fanni fidoyisi sifatida jamiyatdagi sotsial muammolarga o'zining e'tiborini qaratadi. U ustoz va rahbari Sen Simon bilan kelishmay ishdan bo'shaydi. Uning "Pozitiv falsafa kursi" asari 72 ta tezisdan iborat bo'lib, unda juda muhim ijtimoiy muammaolar ko'tarilgan. Buning sababi bugungi kunda ham mavjud bo'lgan ilmiy maqola va fikrlarga sherik bo'lishdir. Oliy ta'limda faoliyat yurituvchi o'qituvchining vazifalaridan biri ilmiy tadqiqot ishlari bilan ham shug'ullanishidir. Bunda tadqiqotchining yozgan ishlariga mualliflarni qo'shilishini misol tariqasida keltirish mumkin.

Sotsiologiya tarixida pozitivistik maktab shakllanishi bilan turli ijtimoiy muammolarni sabablari va oqibatlarini o'rganish jadallashdi.

Sotsiolog E.Dyurkgeym, G.Spenser, M.Veber, T.Parsons, P.Sorokin, R.Merton, Ch.Kuli, M.Sherif, Ibn Haldun kabi olimlarning o'z faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabati jamiyatdagi ijtimoiy muammolarga yechim topishda muhim omil bo'ldi va hozirgi kungacha ushbu olimlar yaratgan ilmiy meros o'z ahamiyatini yo'qotmadi [6,7,8,9,10].

Yuqoridagi olimlarning nazariya va amalga oshirgan ishlari, albatta, ularni o'z kasbiga munosabati, deb hisoblaymiz. Bugungi kunda mamlakatimiz tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan

mamlaktlar qatoriga kiradi. Yosh avlodni tarbiyalashda ta'lim sohasi xodimlarining o'rni beqiyos. Shu nuqtai nazardan, olib qaraganda ushbu kasb egalarining faoliyatiga munosabati ahamiyatlidir.

Shu o'rinda, sohani rivojlantirishda zamonaviy rahbar o'z sohasini raqobatbardosh qilishga, moddiy-texnik rivojlanishi va xodimlarni rivojlantirishga sarmoya kiritish orqali uning ish samaradorligini oshirishga intiladi. Bunda bu sohaning eng muhim aktiv xodimlardir. Zamonaviy rahbar sadoqat yoki sadoqat tuyg'usini amalda namoyon qilish orqali yosh mutaxassislarni kasbiga sadoqat tuyg'usini shakllantirishi lozim. Bu orqali kadrlar almashinuvini kamaytirishga va shunga mos ravishda sohani samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi. Mana shunday imkoniyatni yaratilishi o'z navbatida tartib-intizomli, ma'suliyatli va tog'ri va adolatli qaror qabul qiluvchi xodimlarni shakllanishi hamda o'z kasbiga sadoqat bilan munosabatda bo'ladigan kadrlar salmog'ini oshirib boradi.

Xodimlarning sadoqatli xatti-harakatlarining natijasida ishdan bo'shatish past darajasi, ishdagi harakatlarning ko'payishi (mahsuldorlik), tashkiliy xavfsizlik darajasining oshishi, mehnat unumdorligining oshishi, ish joyidagi stress ehtimolligining pasayishi, oila va ish o'rtasidagi ziddiyatning pasayishiga olib keladi.

Sadoqatning turli ko'rinishlari mavjud. Tashkiliy sadoqatning hissiy (yoki affektiv) komponenti (tashkiliy majburiyatning affektiv komponenti) xodimlarning hissiy mansubligiga asoslanadi, bilan identifikatsiya qilish va sohaga jalb qilish. Masalan ta'lim sohasida o'quvchilar bilim olishlari uchun ham tashkiliy masalalarning ahamiyati katta.

Bizning nazarimizda o'z sohasiga sodiq bo'lgan xodim yanada samaraliroq ishlaydi, ishga diqqatini jamlay oladi, o'zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashadi, va yangi bilimlarni egallashdan manfaatdor bo'ladi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, farzandlarimizni erkin fikrlovchi va mustaqil fikrga ega qilib tarbiyalashimiz lozim. Ammo, dars beradigan ustoziga gap qaytaradigan, ta'lim berayotgan o'qituvchini bemalol pisan qilmaydigan qilib tarbiyalanishlariga aslo yo'l qo'ymaslik zarur.

Buning o'ziga xos ijtimoiy sabablari mavjud. O'qituvchining jamiyatdagi sotsial maqomi. Uni ko'tarish masalasi muhim sotsial ahamiyatga ega. Bunda davlat tomonidan yaratilgan shart sharoitlarga qaramay ma'suliyat xis qilmaslik holati ham uchraydi. O'qituvchilik kasbi azaldan nufuzli kasb sanalgan. Chunki, ulamolar, podsholar, vazirlar, qozilar, quruvchilar, savdogarlar va boshqa barcha kasb egalarini albatta ustoz, muallim o'qituvchi o'qitadi. Bu kasb egalari tarixdan fidoiylar, deb atab kelingan. Ammo, bugungi kunda hamma o'qituvchilar ham o'z kasbiga sodiqmi, fidoiymi, degan savol tug'iladi. Albatta, azaldan o'qituvchining asl maqsadi moddiy mablag' emas, bilim berish va savobga ega bo'lish hisoblangan. Ushbu so'zimizni isboti sifatida Nizomiy Ganjaviyni to'rtligga yuzlanishni o'rinli, deb hisoblaymiz.

Muallimda bisot yo'q kitobdan bo'lak,
Qalbida lag'cha cho' oftobdan bo'lak,
Shogirdlar kamolin ko'rsa o'ngida,
Boshqasi kerakmas, savobdan bo'lak [11].

Bizning nazarimizda N.Ganjaviy ta'kidlaganidek, haqiqatdan muallimlik kasbi sharaflilik kasb. Insonlarni ilmga qiziqituvchi, uning hayotini yorituvchi kasb. Bu borada tahlil qilishimiz muhim. Ta'lim berayotgan muallimlarni o'z kasblari, fanlarini chuqur bilishlari va soha bo'icha dunyodagi yutuqlardan foydalanishlari bugungi kunning talabidir. Bunda, o'quvchining izlanuvchanligi va ko'proq bilim olishga, kitob o'qishga bo'lgan ishtiyoqi o'qituvchiga ham ma'lum bir talablarni qo'yadi. Sinfidagi, auditoriyadagi talabaning fundamental bilimlarga ega bo'lmasligi yo'ki berilayotgan bilimni o'zlashtirmasligi ma'lum bir ma'noda dars beruvchini o'z ustida ko'proq ishlash majburiyatini susaytiradi.

Demak, ikki tomonni o'z ustida ishlash mexanizmlarining mavjudligi natijadorlikni yuqoriga ko'taradi. Bizning nazarimizda bugungi kunda ma'lum ma'noda fidoiylilik va o'z kasbiga sadoqatning dinamik holati pasaygan.

Shu o'rinda tibbiyot yo'nalishiga ham o'z e'tiborimizni qaratmoqchimiz. Barcha xalqlar kabi sog'lom turmush tarzi biz uchun ham ahamiyatli. Ammo, biz bunga ko'p e'tibor qartmaymiz. Shuningdek, ushbu holat natijasida shifokorlarga murojat qilishga harakat qilamiz. Albatta, o'z

kasbining fidoiysi bo'lgan shifokorning maqsadi bemorni davolash, uni oyoqqa turgazish bo'lishi kerak. Bu barcha uchun ma'lum masala.

Bizning nazarimizda bugungi kunda shifokorlarning asosiy qadriyati moddiylik. Bunda ushbu kasb egalari kasbga sadoqati va fidoiyligi ma'lum darajada susaygan. Biz barcha kasb egalari faoliyatlarini tanqid qilishdan yiroqmiz, ammo haqqoniy hayotda bunday holatlar ko'pgina sohalarda uchragani kabi tibbiyot, ta'lim, qurilish sohalida tez-tez uchrab turibdi.

Bu kabi holatlarni sotsiolog sifatida o'rganish va tahlil qilib borish maqsadga muvofiq. Muhandisning, o'qituvchining, tibbiyot hodimining, dindorning, ishlab chiqaruvchining o'z ma'suliyati va javobgarligi doimiy soha mutassadilarining diqqat markazida bo'lishi lozim. Aks holda, jamiyatni tanazzulga olib borish hech gap emas. Bugun biz shiddatli ma'lumotlar olamida yashayotgan ekanmiz, bu olam o'zining domiga bizni tortib ketishini oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish shart. Bu olamni yangiligi yuqori, yutuqlaridan foydalanish orqali o'z sohamizni rivojlantirishga harakat qilishimiz, bu yo'lda belimizni mahkam bog'lashimiz zarur.

Buni albatta o'zimizni faoliyatimiz doirasidan boshlashimiz lozim. Biz kasbga muhabbat va kasbga sadoqat tushunchalarini yaxshilab anglashimiz va boshqalarga ham anglatishimiz zarur. Bu tushunchalar bir biriga o'xshash bo'lsada, turlichalik kasb etadi. Masalan, yoshligimizdan jurnalist bo'lishni orzu qilamiz. Bu o'z navbatida jurnalistlar faoliyatini OAV orqali ko'rganimiz sababli ro'y beradi. Ammo siz bu sohaga o'qishga kira olmadingiz. Shunday bo'lsada ushbu kasbni sevasiz. Vaqt o'tib boshqa kasb egasi bo'ldingiz va o'z kasbingizni yaxshi ko'rib qoldingiz.

Demak, siz boshqa kasb egasi bo'ldingiz va kasbingizni sevasiz. Shu bilan birgalikda jurnalistlik kasbi ham sizga yoqadi. Albatta bu yerda e'tibor berishimiz lozim bo'lgan narsa shundaki, kasbni sevish bilan o'sh kasb bilan shug'ullanish o'rtasida farq bor.

Bizning nazarimizda o'z kasbga sadoqat sevishning yuqori darjasidir. Bu borada yuqorida keltirib o'tgan masalalarimiz jamiyat uchun o'rganish va o'rgatish zarur bo'lgan masaladir. Kasbning jozibadorligini ham aynan ko'rastish va jamiyatga tadbiiq qilish kasb egalari tomonida amalga oshiriladi. Kasbga qiziqish ko'pgina hollarda uning jamiyatdagi mavqeyiga bog'liq. Shuningdek, inson shug'ullanayotgan kasbga faqatgina moddiy farovonlik nuqtai nazarudan yondoshmaydi, yani uning hobbisi, yordam ko'rsatish, o'rgatish, tadbiiq qilish shakli ham bo'lishi mumkin. Kasblarning jozibadorligini sotsiologik nuqtai nazardan tadqiq qilish bizda deyarli amalga oshirilmagan desak xato bo'lmaydi. Demak, ushbu muammoni sotsiologik jihatdan o'rganish zarurligini ta'kidlashimiz mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda o'z kasbga sadoqat maslasi muhim sotsiologik fenomen masalasidir.

*Birinchi*dan, agar kasb egalari o'z kasblarini rivojlantirish va unga yangiliklarni kiritib bormas ekan, soha rivoji taraqqiyotdan ortda qoladi;

*Ikkinchi*dan, bu sohaga qiziquvchilarni kamayishi va sohaning jamiyatdagi sotsial maqomini pasayishiga olib keladi;

*Uchinchi*dan, kasblar doirasida obro'si tushishi va umuman yo'qolib ketishigacha borishi;

*To'rtinchi*dan, ushbu sohadagi muammolarni avj olishi, sohani tanazzulini tezlashtiradi;

*Beshinchi*dan, soha mutaxassislarini moddiy va ma'naviy tanazzulga olib keladi. Shu bilan birga, jamiyatda sifatsiz kadrlarni ko'payishi va ularni kelajakda mamlakatni taraqqiyotda orqada qolishiga sababchi bo'lishi mumkin. Demak, turli soha mutaxassislari o'z kasblarini sevishi va sadoqat bilan hizmat qilishi bu sotsial fenomen sifatida jamiyatni statik holatdan dinamik holatga olib chiqadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. II jildlik. Pandlar, ibratlar, hikoyalar, nabiyalar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari. – Toshkent, “Ma'naviyat”. 2004. – B.96
2. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. I. Karimov. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2010. – B.176
3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: “Янги аср авлоди” 2018. –Б.320

4. Конт О. Общий обзор позитивизма. Перевод с фран. Шапиро И. Под ред. Радлова Э. – Изд. 2-е. – М.: «ЛИБРОКОМ», 2011. – С.296
5. Конт О. Дух позитивной философии. Перевод с франц. Шапиро И. – Ростов н/Д.: «Феникс», 2003. – С.256
6. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда / пер. с фр. Гофмана А.Б. М.: «Канон» 1996. – С.332
7. Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. М.: Политиздат, 1992. –С.295–424
8. Кули Ч.Х. Избранное: Сб. переводов / РАН. ИНИОН. Центр социал. научн.-информ. исследований. Отд. социологии и социальной психологии; Сост. и переводчик В. Г. Николаев. отв. ред. Д.В.Ефременко. – М., 2019. – 234 с.
9. Мертон Р.К. Социальная структура и аномия // Социология преступности. – М.: Прогресс, 1966. – С.299–313.
10. Ибн Халдун, «Китоб ул-ибар», («Ибратли мисоллар китоби»,–1370 й).
11. Nizomiy Ganjaviy. „Yetti Go‘zal“ / tarjuman Jamal Kamal. – Toshkent: „Savad“, 2019. – 496 b.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
VOLUME 7, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000